XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2023 - yil 24 - may VI-64-80-8-113-K/23 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumani mahalliy budjetining 2023-yil birinchi chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksining 126-moddasiga muvofiq tuman byudejetining 2023-yil birinchi chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobiga shakllangan mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning birinchi chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining joriy yil birinchi chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi **jami 503 000,0 ming so‘mni** tashkil etganligi ma’lumat uchun qabul qilinsin.

3. Joriy yil birinchi chorak yakuniga ko‘ra daromodlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan **jami 503 000,0 ming** (besh yuz uch million) **so‘m mablag‘** ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari tuman budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning

rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunda belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Yu.Umbarov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman kengash raisi **Sh.A.Rajabov**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2023 yil 24 maydagi
VI-64-80-8-113-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qiziriq tumani mahalliy budjetining 2023-yil birinchi chorakida daromadning orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

T/r	Tashkilotlar nomi	Ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming so‘mda)	Foiz hisobida
A	1	2	3	4
Jami shakllangan manba			**503 000,0**	**100%**
Jami ajratiladigan mablag‘:			**503 000,0**	**100%**
1	Tuman hokimligiga	“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga	150 000,0	30,0%
2		“Ko‘zi ojizlar” jamiyati xodimlari ish haqi to‘lovi uchun	18 000,0	3,6%
3		“Milliy gvardiya” xodimlari ish haqi to‘lovi uchun	30 000,0	6,0%
4		Tuman hokimligining tabiiy gazdan qarzdorligi uchun	16 000,0	3,2%
5		Xizmat abtoulovlari uchun yoqlig‘i olish xarajati uchun	6 500,0	1,3%
6		Konvert markalari to‘lovi uchun	3 000,0	0,6%
7		Internet tarmog‘i to‘lovi uchun	5 000,0	1,0%
8		Maxsus pochta xizmati to‘lovi uchun	3 000,0	0,6%
9		Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i Xamrayev Rustam Choriyevich, tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Raxmatov Zafar Mamasharipovichlarga 2 oylik lavozim maoshi miqdorida ustama to‘lovi uchun	16 330,0	3,2%
10		Tuman hokimligi tex xodimlarini rag‘batlantirish uchun ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun	11 000,0	2,2%
11		Joriy yil aprel oyida o‘tkazilgan referundum tadbirlarida qo‘shimcha faol ishtirik etgan 13 nafar xodimlarni moddiy rag‘batlantirish xarajatlari va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun	41 460,00	8%
12		Ko‘p qavatli uylarni ta’mirlash xarajatlari uchun	10 000,0	2,0%
13		Tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri B.Rahmatov hamda bosh mutaxassisi A.Toshpo’latovlarga transport xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qoplash uchun	6 975,0	1,3 %
14	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga	Ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan hududda boshqa hududdan jalb etilgan o‘qituvchilar uchun oylik pul kompensatsiyasi to‘lovi uchun	13 735,0	2,7 %
15	Tuman obodonlashtirish boqarmasiga	“Rabatak” MFYda ichki yo‘lni ta’mirlashda yuzaga kelgan qarzdorlik uchun	40 000,0	8,0%

16	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	75 000,0	15,0 %
17		“Ayollar daftari” jamg‘armasiga	57 000,0	11,3%